

UO‘K № 330.322.01

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

K.X. Saidova

TTYSI assistent

Abstract: This article outlines recommendations and analytical conclusions on the principles of improving the theoretical foundations of investing in the innovative development of the economy.

Keywords: Innovative economy, investments, innovative projects, industrial enterprises, innovative development.

KIRISH: Hozirgi kunda diyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, ilm-fan sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, innovatsion faoliyatga sarflangan davlat va xususiy sektor xarajatlarini aniqlash hamda optimallashtirish, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi institutlar faoliyatini takomillashtirish, xususiy sektor mablag'larini jalb qilishda rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va innovatsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga innovatsion loyihalarni joriy etishni jadallashtirish, jumladan, sanoat korxonalarini tomonidan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish, boshqaruvga oid innovatsiyalardan amaliyotda keng foydalanish hisobiga yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishish, shuningdek, O'zbekistonning global reytinglardagi ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaratilgan hisoblanadi.

ADABIYOTLARSHARHI: Mamlakatimiz hukumati tomonidan 2030 yilga borib Global innovatsion indeks xalqaro reytingi ko'rsatkichlari tizimida jahonning yetakchi 50 ta mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategik vazifasi belgilangan [1]. O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" [2]. Jahon fanining zamonaviy yutuqlari hamda innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik tomonidan innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishga yo'naltirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Ammo hozirgi kunda innovatsion faoliyatni investitsiyalash uchun milliy iqtisodiyotda ajratilayotgan mablag'lar hajmi va o'sish sur'atlari yetarli emas. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasini 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlantirish Strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko'paytirish va 2021 yilga qadar bu ko'rsatkichni YaIM hajmining 0,8 foiziga yetkazish belgilangan. [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 21 sentyabr'dagi PF-5544-sonli Farmoni.] Innovatsion jarayonlarni investitsiyalashning yangi usullari va yo'nalishlarini topish, mazkur sohadagi jahon tendensiyalarini aniqlash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va faollashtirish dastaklarini izlash va tadqiq etish zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" [3], deb aytgan fikrlari keyingi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyot

tarmoqlari, jumladan, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi va innovatsion faoliyatni investitsiyalash masalalari tadqiqoti bir qator xorijlik olimlarning, jumladan, Lundvall B, Mensh G., Porter M., Solou R., Toffler E., Frimen K., Y. Shumpeter va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan [4-5]. Masalan, Y. Shumpeter innovatsion faoliyatni rivojlantirishda kredit usullariga, G. Mensh innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga, M. Porter esa korporativ va xususiy investitsiyalashga ko'proq e'tibor qaratgan. Olimlarni iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalash masalalariga bo'lgan qarashlarini umumlashtirish asosida biz quyidagi ta'rifni taklif etamiz: "Iqtisodiyotni innovatsion-investitsion rivojlantirish – bu innovatsiyalarni yaratish, taqsimlash va ishlab chiqarishga keng joriy etish jarayonlarini investitsiyalash va har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda bozor subyektlarini innovatsion faolligini oshirish orqali iqtisodiyotni miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'sishiga erishishdir" [6].

Yuqorida o'ganilgan olimlarning ilmiy ishlariga qaramasdan, bugungi kunda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirish masalalari hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy muammolarini yetarli darajada va kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni olib borish talab qilinmoqda. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning asoslarini takomillashtirish bo'yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Sanoat iqtisodiyotida mahsulot differentsiatsiyasining paydo bo'lishi bilan raqobatga qarshi kurashda nafaqat narxlar, balki narxdan tashqari usullar ham samarali bo'ldi. Shuning uchun bu iqtisodiy tizimda iste'molchi tanlovi narx va sifatni solishtirishga asoslanadi. Postindustrial iqtisodiy tizimda istemolchilar fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlariga javob beradigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar uchun ancha yuqori narxlarni to'lashga tayyorligini kuzatish mumkin. Ya'ni, istemolchilar tanlovida narx emas, balki mahsulotning yangiligi, uning ko'p qirraliligi, samaradorligi, ekologik tozaligi va boshqalarni o'z ichiga olgan boshqa yangi mezonlar ustunlik qila boshladi. Iste'molchilar tanlovining o'zgarishi, globallashtirish jarayonlari, raqobatning kuchayishi mamlakatda innovatsion tovarlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun zamin yaratadi.

Ilgari investorlar o'z pullarini qayerga qo'yishlari mumkinligi haqida gap ketganda cheklangan imkoniyatlarga ega hisoblanar edi. Eng keng tarqalgan investitsiya vositalari aksiyalar, obligatsiyalar va investitsiya fondlari edi. Biroq, so'nggi yillarda qisman texnologiyaning paydo bo'lishi tufayli yangi sarmoyaviy imkoniyatlarning ko'payishi kuzatildi. Innovatsion investorlar har doim yangi va noyob investitsiya imkoniyatlarini izlaydilar. Innovatsion investor bo'lish nafaqat yangi va turli investitsiyalarni topish, balki ko'proq tavakkal qilishga tayyor bo'lishdir. Innovatsion investorlar ko'pincha yangi va isbotlanmagan kompaniyalar yoki sohalarga sarmoya kiritishga tayyor. Ular, shuningdek, yuqori daromad olish potentsiali evaziga o'z portfellarida yuqori darajadagi o'zgaruvchanlikni qabul qilishga tayyor.

Garchi innovatsion investor bo'lish yuqori daromad keltirishiga kafolat bo'lmasada, bu, albatta, o'rtachadan yuqori daromad olish imkoniyatini taklif qiladigan strategiya. Shu sababli, bu o'z portfelining samaradorligini oshirishga intilayotgan har qanday investor uchun ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan strategiyadir.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishining asosiy sharoitlarini tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning asosiy institutlari shakllantirilgan, lekin innovatsion jarayonlarni to'liq ishga tushirish uchun to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar – bu innovatsion rivojlanish institutlari o'zaro qo'shma faoliyatining sustligi, sohadagi qonunchilikni to'liq emasligi va innovatsion faoliyatni investitsiyalash yetarli darajadamasligi aniqlangan, bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotda

innovasion faoliyatni investisiyalashning manbalari va usullarini tahlil qilishni talab etadi. Milliy innovatsiya tizimining hozirgi holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarishda tadbirkorlik sohasining faolligi yuqori emas. Bizning fikrimizcha, korxonalar va tashkilotlarning faolligini tartibga solishning bilvosita usullari hisobiga, innovatsion faoliyat ishtirokchilari uchun imtiyozli sharoitlar yaratish orqali oshirish maqsadga muvofiq [7].

Innovatsion g'oyalar va loyihalarni investisiyalashda milliy iqtisodiyotda venchur fondlarni investitsion va pay fondlari shaklida tashkil etish, keyinchalik (innovatsion loyiha amalga oshirilgandan so'ng) ishtirokchilarning ulushini strategik investorlarga sotish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ammo bunday fondlarni samarali faoliyati uchun avvalambor ular maqomining huquqiy asosini yaratish lozim. Qonunchilikka investitsion va pay fondlarining tashkil etish mezonlarini, fondning investitsion portfelining tarkibi, ta'sis hujjatlaridagi majburiy normalarni belgilash mazkur fondlarning huquqiy maqomini, tashkiliy-huquqiy shaklini belgilashga asos yaratadi. Investitsion aktivlarni boshqarish huquqini ishonchli boshqaruvchiga berish va mazkur yo'l bilan innovatsion ishlanmalar, innovatsion g'oyalar, startap va venchur loyihalarni qo'llab-quvvatlash takliflari milliy iqtisodiyotda innovasion faollikni ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Ilmiy-texnikaviy ishlarning hajmi bilan ITTKI bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlandi (korrelyatsiya koeffitsienti $-0,86$), ya'ni tahlil qilinayotgan davrda ilmiy-texnikaviy mahsulot hajmining barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lsa, ITTKI bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni ko'rsatkichi esa pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Shuningdek, ilmiy-texnikaviy ishlar hajmi va ITTKIga qilinadigan xarajatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud ekanligi aniqlandi (korrelyatsiya koeffitsienti $0,98$). ITTKIga xarajatlarning 1 foizga o'sishi ilmiy-texnikaviy ishlar hajmining $0,915$ foizga ko'payishiga olib keladi. Tahlil natijalariga ko'ra ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib (korrelyatsiya koeffitsienti $0,81$), xarajatlarning 1 foizga o'sishi esa (boshqa omillar o'zgarishiga bo'lgan sharoitda) eksport tarkibidagi yuqori texnologik mahsulot xajmining $0,12$ foiz o'sishiga olib kelishi aniqlandi. Buni ITTKIga qilinadigan xarajatlarning asosiy qismi ilmiy xodimlarning mehnatiga haq to'lash xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, ilmiy-tadqiqot institutlarining boshqa joriy xarajatlari tashkil etishi bilan izohlash mumkin. Natijada sohaga kiritilgan investisiyalarni yuqori texnologik tarmoqlar rivojiga to'g'ridan-to'g'ri samara berish imkoni cheklanib qolmoqda. Shuning uchun ham ITTKIga yo'naltiriladigan xarajatlar tarkibini takomillashtirish, ko'proq amaliy ahamiyatga ega, kelajakda tijoratlashtirish imkoniyati bor loyihalarga investitsiya kiritish maqsadga muvofiqdir [9-10].

Undan tashqari, innovasion rivojlanish yo'liga o'tishni tizimli ravishda amalga oshirish lozim, ya'ni har bir korxonalar va iqtisodiyot tarmog'i darajasida innovatsion faollikni ta'minlash, innovatsiyalarni yaratishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish va taqdirlash zarur bo'ladi. Korxonalar miqyosida innovatsion rivojlanish maqsadlariga erishish uchun innovatsion ishlanmalar va intellektual mulk ob'ektlarini yaratgani uchun xodimlarni moddiy taqdirlash tartibini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda, mutaxassislarni intellektual mulk ob'ektlariga mualliflik huquqlarini olganligi uchun oylik maoshini 5 barobarigacha (mualliflik huquqlarini olgan vaqtida) hamda mazkur ishlanma korxonaning ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etilganidan so'ng erishilgan iqtisodiy samaradan 10 foizgacha korxonalar rahbariyati qarori bilan moddiy taqdirlash tartibini joriy etish taklif qilingan. Buning natijasida har bir xodim korxonalar faoliyatini takomillashtirishda o'z intellektual salohiyatidan foydalanib qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi, korxonalar esa innovatsion g'oya va texnologiyalarni tatbiq etish natijasida raqobatbardoshlikni ta'minlash va yuqori moliyaviy natijalar olishga muvaffaq bo'ladi [11-13].

XULOSA: Innovatsion faoliyatga investitsiyalarning barcha manbalarini moliyalashtirish shartlariga ko'ra uchta katta guruhga bo'lish mumkin: maqsadli bo'lmagan, qarzga asoslangan va o'z kapitaliga investitsiya manbalari. Iqtisodiyotga sarmoya kiritishning eng maqbul manbalari va usullarini aniqlash nafaqat innovatsiyalarni yaratish va qo'llash jarayonining uzluksizligini ta'minlabgina qolmay, balki innovatsion ishlanmalarni tadbirkorlik sohasiga muntazam joriy etish muammosini ham hal qiladi.

Ushbu sohaga investitsiyalarning etishmasligi ko'pchilik innovatsion g'oyalarning amaliy qo'llanilishini topa olmasligiga va shu sababli amalga oshirilmay qolishiga olib keladi. Milliy iqtisodiyotni innovatsion va investitsiyaviy rivojlantirish amaliyoti va mavjud vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish uchun muhim institutsional asoslar va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, ammo asosiy investor hamon davlat bo'lib qolmoqda. innovatsion faoliyat. Tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsiyalarni yaratish va joriy etish jarayonlariga sarmoya kiritish faolligini oshirish maqsadida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va oshirish dastaklaridan kengroq foydalanish, shuningdek, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza tizimini yaratish zarur. va bu sohadagi imtiyozlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son Farmoni, 21.09.2018 y. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
2. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018 y., 20 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Oliy majlisga murojaatnomasi <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020>
4. Lundvall B.A. National Systems of Innovation. Towards the Theory of Innovation and Interactive Learning. L.: Pintor Publications, 1992. P.195.
5. Mensch G. Stalemate in Technology: Innovations Overcome the Depression - New York: Ballinger Publishing Company, 1979. p. 14.
6. Rodionov I.I. Modeli formirovaniya instituta venchurnix investisiy// The AngelInvestor Journal, p. 42;
7. Shadiyeva D.X. Sovershenstvovanie teoretiko-metodologicheskix osnov finansovogo obespecheniya innovatsionnogo razvitiya natsional'noy ekonomiki. Monografiya.– T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – 229 s.
8. Shadiyeva D. Innovative activity funding: analysis of practice in Uzbekistan// Voice of Research. – Ahmedabad, Volume 5 Issue 2, September 2016. P. 50-52. (Global Impact Factor №5. 0,886).
9. Shadiyeva D. Role of innovation increases, prompting interest of government, private sector to invest more in R&D// The Korea Post. – Seoul, Volume 30 № 1 January 2017. P. 50-51. (08.00.00; № 11)
10. Shadiyeva D. Innovatsion rivojlanish nazariyasining ahamiyati// Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari: Respublika oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent, 2013. – B. 565-567.
11. Shadiyeva D. The theory of innovative development and its influence on R&D financing// Иқтисодиёт назарияси муаммолари: талқини ва ечимлари: олий ўқув юртлариаро илмий-амалий конференция материаллари – Тошкент, 2015. – Б. 97-101.
12. Shadiyeva D. The role of R&D financing in the National Innovative System formation// Proceedings of the Tashkent International Innovation Forum. – Tashkent, 2015. – p. 113-116.
13. Djuraev T.T., Shadiyeva D.X. Prioritetnie napravleniya formirovaniya i razvitiya natsional'noy innovatsionnoy sistemi Uzbekistana// Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning jahon tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari: respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami- Toshkent, 2016. – C. 176-178.